



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

BOLALARNI SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI ORQALI IJODKORLIK, MULOQATCHANLIK QOBILIYATLARINI O'STIRISH VA RIVOJLANTIRISH TEXNALOGIYALARI

Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti
+998959860877 jumaboyevamarhabo569@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda sahnalashtirish faoliyati orqali muloqatchanlikni shakllantirishning ahamiyatini tahlil qilingan. Maqolada sahnalashtirish usullarining bolalar nutqini rivojlanirishdagi ro'li va ularning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'limda sahnalashtirishning samarali usullari, masalan, o'yinlar, ko'rsatuvli o'yinlar va kollaborativ faoliyatlar orqali bolalarning o'zini ifoda etish, nutq va til ko'nikmalarini rivojlanirish imkoniyatlari ta'riflanadi.. Maqola maktabgacha ta'lim jarayonida sahnalashtirishning bolalar muloqoti va ijtimoiy rivojlanishiga q'shgan hissasini tushunishga yordam beradi va pedagoglarga bolalar bilan ishlashda yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, faoliyatlar, ta'limga ko'rsatuvli o'yinlar, kollaborativ faoliyat, nutq ko'nikmasi, maktabgacha ta'limga, muloqatchanlik, ko'nikma, obraz.

Аннотация

В статье анализируется значение театрализации в формировании коммуникативных навыков у детей старшего дошкольного возраста. Рассматривается роль театрализованных методов в развитии речи детей и их социально-эмоциональных навыков. Описаны эффективные способы театрализации в дошкольном образовании, такие как игровые и показательные выступления, а также совместная деятельность, способствующая самовыражению, развитию речи и языковых навыков у детей. Статья помогает понять вклад театрализации в общение и социальное развитие дошкольников, а также предлагает педагогам новые подходы к работе с детьми.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

Ключевые слова: Творчество, деятельность, образование, показательные игры, коллективная деятельность, речевые навыки, дошкольное образование, коммуникативность, навык, образ.

Annotation

The article analyzes the importance of dramatization in developing communication skills in older preschool children. It examines the role of dramatization techniques in children's speech development and their socio-emotional skills. Effective methods of dramatization in preschool education, such as role-playing games, demonstrative performances, and collaborative activities, are described as ways to enhance children's self-expression, speech, and language skills. The article helps understand the contribution of dramatization to children's communication and social development and offers educators new approaches to working with children.

Keywords Creativity, activities, education, demonstrative games, collaborative activities, speech skills, preschool education, communicative ability, skill, image.

Bolalar uchun sahnalashtirish faoliyati – bu nafaqat o‘yin, balki ularning ijodiy fikrlashini, muloqot qilish ko‘nikmalarini va o‘z ifodalarini rivojlantirishga katta yordam beradigan samarali vositadir. Sahnalashtirish orqali bolalar turli vaziyatlarni o‘zlari tasavvur qila olishadi, boshqalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lishadi, shuningdek, o‘z fikrlarini aniq va ishonchli tarzda ifoda etishni o‘rganadilar. Bunda bolalarda ushbu sohalar rivojlqanib boradi.

1. Ijodkorlikni rivojlantirish

Sahnalashtirish faoliyati bolalar uchun o‘z dunyoqarashini kengaytirish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va o‘z tasavvurlarini amalga oshirish uchun juda yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu jarayonda bola turli obrazlar yaratadi, vaziyatlarni o‘ylab topadi, shu orqali o‘z ichki dunyosini kengaytiradi. Masalan, biror hikoyani sahnalashtirish jarayonida bola o‘ziga xos yondashuvni topadi, turli qahramonlarning xatti-harakatlarini va fikrlarini o‘zgartirish orqali o‘z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, sahnalashtirish bolaga xayoliy dunyo yaratishga va uning ichki his-tuyg‘ularini harakat orqali ifodalashga imkon beradi.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

Bu jarayonda bola o‘zini o‘zgartirib, yangi obrazlar orqali muloqot qilishni o‘rganadi. Masalan, biror hikoyada qahramonning pozitsiyasini o‘zgartirib, yangi voqealar va hissiyotlarni kiritish orqali bola o‘z ijodini yanada boyitadi.

2. Muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish

Sahnalashtirishda bola boshqalar bilan faol muloqotda bo‘ladi. U o‘z fikrlarini ifodalash, boshqalar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish va boshqalarning fikrlarini tinglashni o‘rganadi. Bu jarayon bolaga o‘zining so‘zlashuv madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, guruhda ishslash, hamkorlik qilish va boshqalarga hurmat ko‘rsatishni o‘rgatadi. Sahnalashtirish jarayonida bolalar turli xarakterdagi obrazlarga kirib, boshqa odamlarning fikr va hissiyotlarini tushunishga intilishadi. Shu bilan birga, ular o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazishda muloqotning turli usullarini, mimika va jismoniy ifodalarni qo‘llashni o‘rganadilar. Bu ko‘nikmalar ularning ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga va kommunikativ qobiliyatlarining oshishiga yordam beradi.

3. O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish

Sahnalashtirish faoliyati bola uchun o‘zini erkin ifoda etishning ajoyib usulidir. Bola o‘ziga xos obrazlarda o‘ynaganida, u o‘zini yangicha va mustahkamroq his qilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, uning o‘ziga b‘lgan ishonchini oshiradi. Sahnalashtirish jarayonida bola biror obrazni yaratishda muvaffaqiyatga erishganda, bu uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi va uni yanada erkinroq va mustahkamroq muloqot qilishga undaydi.

4. Dastlabki o‘rganish jarayoni

Sahnalashtirish faoliyati bolalarning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Boshqa odamlar bilan hamkorlikda ishslash, sahnada o‘zgarishlarni bajarish va o‘z fikrlarini erkin ifodalash orqali bola o‘quv jarayonida yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi. o‘rgangan narsalarini amalda qo‘llash orqali bolalar bilimlarini va ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

5. Ta’lim jarayoniga qo‘shimcha motivatsiya

Sahnalashtirish faoliyati bolalarni o‘qishga va boshqa darslarga qiziqtirishga ham yordam beradi. Darslarda o‘zlarini boshqacha tarzda ko‘rsatish, turli obrazlarga kirish orqali bolalar bilimlarni yanada qiziqarli va yodda saqlash osonroq qilishadi. Sahnalashtirish jarayonida ular turli hikoyalar orqali o‘rganishlari va yangi mavzularni boshqacha qarash nuqtasidan tushunishlari mumkin.

6. Bolalarning muloqot qobiliyatini oshirishda dramani qo‘llash: Dramaturgik sahnalashtirish orqali bolalar o‘z fikrlarini ifodalash, boshqalarni tushunish va hissiy reaksiyalarni tan olishda o‘sishlari mumkin.

7. Sahnalashtirishning til o‘rganish faoliyatini rivojlantirish ta’siri: Sahnalashtirish bolalarning so‘z boyligini kengaytirish va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga yordam beradi. Ushbu faoliyat jarayonida bolalarning nutq va til rivojlanishiga ta’siri juda katta.

8. Maktabgacha yoshdagি bolalar uchun sahnalashtirish faoliyati va o‘yinlar orqali muloqatchanlik ko‘nikmalarni rivojlantirish: Bunda bolalarda o‘yinlar va sahnalashtirishning orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlanadi. Bunda bolalar o‘zaro hamkorlik, jamoada ishslash, hissiy qobiliyatlarini rivojlantirish boradi.

Sahnalashtirish faoliyati bolalar uchun tushunarli va o‘zi ijro eta oladigan faoliyat turi, chunki uning asosida o‘yin yotadi. Sahnalashtirish tomoshabinga badiiy so‘z, xatti-xarakat, rang, musiqa bilan ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarda yoshligidanoq sahnalashtirishga qiziqishini shakllantirish kerak, teatrga borish, teatrlashtirilgan o‘yinlarda, qiyin bo‘lman spektakllarda ishtirok etishi juda muhim. Bolalarning o‘yinga bo‘lgan ehtiyoji juda erta namoyon bo‘ladi. 2-3 yoshdanoq bolalar qiziqish bilan maymoq ayiqni, qo‘rkoq quyonni, ayyor tulkini taqlid qilib ko‘rsatadilar. Ular osonlik bilan bir obrazdan ikkichi obrazga kirishadilar. Ularning xarakatlari taqlid qilish, immitatsiya xarakterida, shu bilan birga juda emotsional. Sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi: sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalrning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantairishdir. Sahnalashtirish faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

1. Sahnalashtirish faoliyatida bolalar ijodiy faolligini oshirish uchun shartsharoitlar yaratish ya’ni ijodiy ijrolarni rag’batlantirish, qobiliyatini rivojlantirish, sahnaviy chiqishlarda erkin va dadil o‘zini tutish, mimika, erkin xarakatlar, intonatsiyalar va boshqa vositalari orqali improvizatsiyni paydo qilish uchun rivojlangan muhit yaratish kerak.
2. Bolalarni teatr madaniyatiga jalb etish,teatr tuchunchasi bilan, teatr janrlari, qo“g‘irchoq teatri bilan tanishtirish lozim.
3. Pedagog teatrni boshqa faoliyat turlari bilan xamkorligini ta’minlashi zarur.Bu faoliyat turlari- musiqa mashg‘ulotlari, jismoniy xarakatlar vaqtida, ekskursiyalar va boshqalar bilan uzviy bog‘liqlikda olib borilishi tavsiya etiladi.
4. Kattalar va bolalar bilan xamkorlikda ishlashi uchun sharoitlar yaratish, ota-onalar, xamkasb va katta guruh bolalari xamkorligida kichik guruh bolalariga spektakllar namoyish etish borishlari muloqatchanlikni yanada rivojlantiradi
5. Kichik yoshdagi bolalarga xurmat va o‘zini – o‘zi tushunishi uchun yaxshi mikroklimat yaratishn lozim.
 - Kichik yoshdagi bolalar — namoyishlardan minnatdor bo‘ladigan tomoshabindir. Asosiysi, ota-onalar bolalarni qayerga va qanday maqsadda olib borganliklarini tushunishlari kerak. Haqiqiy teatrga bolalarni masalan 2-3 yoshli bolalarni olib borish hali erta. Bolalar spektakllari repertuarlari, qoida bo‘yicha, bu yoshdagi bolalarga mo‘ljallanmagan. Shuning uchun teatrni uyda yoki bolalar bog‘chasida tashkil etishni maslahat beriladi. Uch yoshgacha bolalarga oddiy bolalar qiziqib o‘ynaydigan o‘yinchoqlar bilan tomoshalar qo‘ysa bo‘ladi. Yangi o‘yinchoqlar qo‘g‘irchoq, kuchukcha, ayiqcha va boshqalar orqali, bolalarda zavq, qiziqish, hayratlanish xislarini uyg‘otadi. Bolalar bog‘chasida bolalar sahnalashtirish nimadan boshlash kerak? Bolalarni sahnalashtirilgan o‘yin faoliyatiga jalb qilish kerak, uning uchun tarbiyachi rejisyor bo‘lishi va teatr tashkil eta olishi lozim. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalar oddiy vaziyatlarni o‘yinchoqlar bilan ijro etishi, qo‘sinq kuylashi, she‘r, ertak, hikoyalar kabi tanish adabiy asarlarni sahnalashtiradilar. Yangi qo‘g‘irchoqni bolaga tanishtirish vaqtida oddiygina syujet o‘ylab topish kerak, masalan: kuchukcha adashib qoldi va o‘ziga haqiqiy do‘st izlamoqda, qo‘g‘irchoq



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

— kichkina qizaloq uni yaxshi ko‘rishi va parvarishlashi kerak, ayiqcha asaldan ko‘p yeganligi uchun oilaviy shifokor yordamiga muhtoj.anashunday ijodiy yondashuvlar orqali tanishtirishi kerak. Har qanday bola o‘yinchoqlar yordamida oddiy harakatlardan asta-sekin kichkina qiyin bo‘lmagan syujetlarni o‘ynashi mumkin. Keyinchalik esa ushbu syujetlar hayotiy malakaga tayangan holda rivojlanadi. Tarbiyachi ham o‘yinga qo‘shiladi va ayrim rollarni ijro etadi, namuna sifatida ko‘rsatadi, u yoki bu vaziyatda xohlagan harakat namunalarini ko‘rsatib beradi, o‘yin jarayonida improvizatsiya qiladi, ma’lum bir o‘yinchoq nomidan gapiradi, bola fikrlashi, xarakat qilishi, javob berishi uchun stimul yaratadi. Barchamizga ma’lumki, mashg‘ulotlar bir vaqtning o‘zida bilim olish, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalarini bajarishi darkor, faqatgina tomoshaga tayyorgarlik ko‘rish bo‘lmasligi kerak.

Ularning mazmuni, shakli va metodi ikki maqsadga erishishi uchun qaratilgan:

- nutq va teatr-ijrochilik faoliyati ko`nikmalarini rivojlanishiga; -ijodkorlik muhitini yaratishga;
- bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga. Bunday mashg‘ulotlar mazmuni nafaqat badiiy adabiyot asari yoki ertak teksti, balki undagi qahramonlarning imo-ishorasi, mimikasi, xarakati, kostyumi, mizanstsenasi(spektaklning ayrim paytlarida dekoratsiya va aktyorlarning joylanishi) bilan tanishib boradilar. Teatrlashtirilgan mashg‘ulotlarda bola quyidagi ko‘nikma va malakalarni egallaydilar: qo‘g‘irchoq spektakllarini tomosha qilish va ular xususida suhbatlar o‘tkazish;

Xulosa

Bolalarni sahnalashtirish faoliyati orqali ijodkorlik va muloqatchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashni, nutqini rivojlantirishni va ijtimoiy muhitga moslashishni o‘rganadilar. Sahnalashtirish faoliyati nafaqat bolalarning badiiy-estetik didini shakllantiradi, balki ularning muloqot qobiliyatlarini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.Sahnalashtirish jarayoni bolalarning tasavvurini kengaytirib, ularni faol fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va o‘zlarini turli obrazlarda sinab ko‘rishga undaydi. Ushbu usul orqali bolalar nafaqat eshitish va ko‘rish orqali



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

o‘rganadilar, balki bevosita ishtirok etish orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradilar. Natijada, ular ijtimoiy-emosional rivojlanib, tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot qilishni o‘rganadilar. Sahnalashtirish metodining yana bir muhim jihat – bolalarning guruhiy faoliyatda ishtirok etishidir. Bu ularda jamoaviy hamkorlik, mas’uliyat, empatiya va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalash, turli vaziyatlarda moslashish qobiliyatlarini shakllantiradilar. Shunday qilib, sahnalashtirish faoliyatini ta’lim jarayoniga keng joriy etish mактабгача yoshdagи bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu usul orqali pedagoglar bolalarning ijodkorligi va muloqot qibiliyatlarini o‘stirish bilan birga, ularning ijtimoiy moslashuvini va shaxsiy o‘sishini ham qo‘llab-quvvatlaydilar. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridaa sahnalashtirish usullaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.12.2016 yildagi PQ-2707-son. 2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
- 3.Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori. Maktabgcha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti.
- 4.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashr-T: 2022.
- 5.Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
- 6.Bennet, B. (2013). The Role of Drama in Early Childhood Education. Routledge.
- 7.Shavkatova, R. (2019). Bolalar ta’limi va tarbiyasida ijodiy faoliyatning o‘rnii. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi o‘qituvchi nashriyoti.
- 8.G‘ulomov, T. (2020). Pedagogika va psixologiyaning asosiy tamoyillari. Tashkent: Fan va texnologiya.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th February, 2025

9. Mamatov, I., & Abdullaeva, F. (2018). Bolalar psixologiyasi va ijtimoiy muloqotning rivojlanish bosqichlari. Tashkent: Sharq.
10. Kulikov, A. S. (2017). Teatr va ta'lim: sahnalashtirish metodikasi va amaliyoti. Moskva: Buxoro Universiteti.
11. Frolova, I. V. (2016). Sahnalashtirish va kreativ o'yinlar: bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish. St. Petersburg: Peter.
12. Akhmedova, Z. (2021). Ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni shakllantirish: metodologiya va amaliyot. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
13. Gaynazarova, G. (2022). Social adaptation and its pedagogical factors (on the example of girls). Science and Innovation, 1(8), 2160-2164.
14. Gaynazarova, G. A. (2023). OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALAR MA'NAVIYATIDA IJTIMOIY MUHITNING TA'SIRI. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).